



Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik va tasviriy ko'nikmalarni rivojlantirish metodlari.

Usmonova Nodira Raximovna
Qo'qon shaxar 37-DMTT direktori

Anotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy qobiliyatlarni rivojlantirish bosqichlari, maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatlarining o'ziga xos xususiyatlari tasviriy faoliyatga o'rgatishning umumiy masalalari haqidagi ma'lumotlar berilgan. Tasviriy faoliyat orqali kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, fikrlash, xayol, estetik xis tuyg'u badiiy did, shu bilan birga axloqiy sifatlar, mehnat qilish xoxishi va ko'nikmasi, boshlangan ishni oxiriga etkazish, qiyinchiliklarni engish xissining rivojlanishiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy faoliyatga o'rgatish, rivojlantirish vazifalari, ta'lim-tarbiyaviy ish, rasm, loy, qirqib yopishtirish va qurish – yasash ishlari, faoliyat turlari, mazmunli-rolli, dramalashtirish, didaktik, harakatli, sensor tajriba.

Методы развития творческих способностей и изобразительных навыков у детей дошкольного возраста

Усмонова Нодира Рахимовна
Директор 37-ДМТТ города Коканда

Аннотация. В данной статье рассматриваются этапы развития зрительных навыков приведены сведения об особенностях изобразительной деятельности детей дошкольного возраста и общих вопросах обучения их изобразительной деятельности. Целью изобразительной деятельности является воспитание у молодежи наблюдательности, любознательности, мышления, воображения, эстетического чувства и художественного вкуса, а также нравственных качеств, желания и умения трудиться, умения доводить начатое дело до конца, умения преодолевать трудности.

Ключевые слова: Обучение изобразительной деятельности, развивающие задания, образовательная работа, рисование, лепка из глины, вырезание и склеивание, конструирование, виды деятельности, содержательно-ролевые игры, драматизация, дидактика, движение, сенсорный опыт.

Tasviriy faoliyat–bolalar bilan olib boriladigan ta'lim–tarbiyaviy ishning qismi sifatida. Maktabgacha ta'lim tashkilotda tasviriy faoliyat bolalar bilan olib boriladigan butun ta'lim-tarbiyaviy ishning bir qismi xisoblanadi. Shu sababli u xilma–xil faoliyat va mashg'ulotlar turlari bilan bog'liq bo'lishi muhimdir. Bunga bola tasviriy faoliyatining harakterining o'zi imkoniyat yaratadi. Rasm, loy, qirqib yopishtirish ishlarida bolalar

o‘zlarining tevarak atrofidagi narsa xodisalar, badiiy asarlar, qo‘shiqlardan olgan taasurolini aks ettiradilar. Rasm, loy, qirqib yopishtirish va qurish – yasash ishlarining boshqa mashg‘ulotlari va faoliyat turlari bilan bog‘likligi bolalar bilan olib boriladigan ta’lim tarbiyaviy ishning samarasini, bolalarni turli mashg‘ulotlarga qiziqishni oshiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi tarbiyaviy ish bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ularda turli qobiliyatlarni shakllanishi uchun xizmat qiladi. Barcha faoliyat turlarining bog‘liqligi bolalarda kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, fikrlash, xayol, estetik xis tuyg‘u badiiy did, shu bilan birga axloqiy sifatlar, mehnat qilish xoxishi va ko‘nikmasi, boshlangan ishni oxiriga etkazish, qiyinchiliklarni engish xissining rivojlanishigi imkoniyat yaratadi. Bolalar bilan tasviriy mashg‘ulotlarda o‘tkaziladigan suxbat ularda rasm chizishga, loydan narsa yasashga qiziqishlarini uyg‘otishi zarur. O‘tayotgan jarayon bilan bog‘liq bo‘lmagan yuzaki talablar bolalarning ijodiy emotsiyalarini so‘ndiradi. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari jonli, emotsional, ertakli syurprizli elementlar bilan o‘tilishi lozim. Ta’lim jarayonini engil bolalar sezmaydigan qilib o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Tasviriy faoliyatning boshqa faoliyatlar o‘yin, badiiy o‘qish va xikoya qilish, musiqa va xokazo. bilan bog‘likligini sismavzuli olib borish kerak. Dastavval rasm, loy qirqib yopishtirish mashg‘ulotlarining o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash zarur. Bu bolalarning estetik tarbiyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘z navbatida boshqa ta’lim–tarbiyaviy ish bo‘lishlarining vazifalari bilan chambarchas bog‘liq. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini o‘tishda tarbiyachi bolalarning boshqa faoliyatlarida olgan bilimlarga tayanadi.

Bolalar tasvirlamoqchi bo‘lgan predmet haqida tasavvurga ega bo‘lsalar, rasm, loy, applikatsiya ishlarida samarali natijalarga erishish mumkin. Tasviriy faoliyat turlarining bolalar o‘yini bilan bog‘liqligi. O‘yin bola xayotida katta o‘rin egallaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi turli xil o‘yinlar o‘tkaziladi: mazmunli–rolli, dramalashtirish, didaktik va harakatli.

Har qanday o‘yin bolaga zavq bag‘ishlaydi. Shunday ekan, tasviriy faoliyat ham o‘yin bilan bog‘lab borilsa, u bolalarga qiziqarli va yoqimli bo‘ladi va emotsional javobni uyg‘otadi, bu esa bolalar ishlarini sifatini yaxshi ta’sir etadi. Mashg‘ulotlarda o‘yinli xolatlarni tashkil etish yaxshi natijalar beradi. Bolalar bunday mashg‘ulotlarda erkin harakat qiladilar. O‘yin usuli barcha guruxlarda qo‘llaniladi. Bu usul yordamida engil quvnoq muxit yaratadi. Bolalarning mashg‘ulotga qiziqishi ortadi, tasviriy faoliyat ko‘nikma va malakalari samaralilik egallaydi. O‘yin shaklida o‘tadigan mashg‘ulot bolalarni qamrab oladi, ularning estetik, axloqiy jixatdan tarbiyalanishlariga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi.

Rasm, loy, qirqib yopishtirish o‘yinchoq orqali o‘yin bilan bog‘langan bo‘ladi. O‘yinchoqni chizish, yasash, qirqib–yopishtirish barcha yosh gurux bolalarida zavq uyg‘otadi, o‘yinchoqlarni tasvirlash bo‘yicha mashg‘ulotlar yil davomida bir necha o‘tkazilishi mumkin. Lekin ularning shakli turlicha bo‘lishi zarur. Bolaning xayotida mazmunli–rolli o‘yinlar muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun tasviriy faoliyatning o‘yin bilan bog‘lanishi bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Mazmunli–rolli o‘yinlarni mashg‘ulot mazmuniga kiritish bolaning tasvirlash faoliyatga qiziqishini, bajarayotgan ishining sifatini yaxshilaydi.

O‘yinning borishi: O‘yin obrazlarini tasviriy, quruq rasm chizish, loydan yasash, qirqib yopishtirish ishlaridan ko‘ra bolalar uchun qiziqarlidir. Bolaning kechinmalariga o‘yin bo‘yoq beradi. Bola o‘z o‘yinli rasmlarida to‘la va yorqin ifodalanishiga intiladi. Tarbiyachi esa bolaga bunda yordam berishi kerak. Rasm, loy, qirqib yopishtirish bilan drammalashtirib, o‘yinlarini uyg‘unlashtirib olib borish, bolalarni har tomonlama rivojlantirishdek, vazifani amalga oshirishga katta imkoniyat yaratadi. Drammalashtirish o‘yinlar uchun ko‘pgina narsalarni bolalarning o‘zlari yasashlari mumkin: dekoratsiya yoki uning qismlari, kostyum detallari, maskalar. Tarbiyachining rasm, qirqib–yopishtirish mashg‘ulotida bolalarga o‘ynagan o‘yinlarini tasviriy topshirig‘ini berish, ularda tasviriy faoliyatga jonli qiziqishini uyg‘otadi. Tasviriy faoliyatning drammalashtirish o‘yini bilan birlashtirib, olib borish o‘rta guruhdan boshlanadi. Rasm, loy, qirqib–yopishtirish mashg‘ulotlarida bolalarga qaxramonlar obrazlarini ifodalab berish vazifasi topshiriladi. O‘ynagan harakatli o‘yinlarini tasviriy taklifi bolalarda zavq uyg‘otadi. Bu o‘yinlarni mazmunini faqatgina rasmda emas, balki qirqib yopishtirish uchun ham oson tasviriy mumkin. Didaktik o‘yinlar jarayonida bolalar predmetning belgilari, rangi, shakli, to‘zilishini, kattaligini va boshqalar xaqidagi bilimlarini mustaxkamlab boradilar xilma–xil sensor tajribaga ega bo‘ladilar, tevarak–atrof xaqidagi tasavvurlari boyidi. Didaktik o‘yinlarning o‘zi ham tasviriyning mazmuni bo‘la oladi. Bolalar qiziqish bilan didaktik materialni tayyorlaydilar. Tasviriy faoliyatning bolalarning tabiat bilan tanishtirish, nutq o‘stirish, musiqa mashg‘ulotlari bilan bog‘liqligi. Tabiat hamma vaqt tasviriy ijodiyotning mazmuni bo‘lib xizmat qiladi. Bolalarning rasmlari tabiat xaqidagi bilimlarini aniqlashtirish, mustaxkamlash uchun yordam beradi, bundan tashqari bolalarda o‘sha kasbga nisbatan estetik xis–tuyg‘ularni uyg‘otadi, bu esa xayotlarini yanada mazmunli va qiziqarli qilishga yordam beradi.

Rasm, loy, qirqib yopishtirish mashg‘ulotlarining nutq o‘stirish bo‘yicha olib boriladigan ish bilan o‘zaro bog‘liqligi juda muximdir. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolalarga ertak, xikoya o‘qib berishadi, she‘rlar yod oldiradilar. Bolalarda bu ishlar davomida obrazli tasavvur shakllanadi va ular ertak va she‘rdagi obrazlarni o‘zlaricha tasvirlab, unga nisbatan munosabatlarini bildirishga intiladilar. Bunda tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari qo‘l keladi, bu mashg‘ulotlar davomida bundan tashqari nutq boyligini o‘stiriladi, uni obrazli ifodalar boyitib boriladi.

Tasviriy faoliyat va musiqaning uzviy bog‘liqligini ham bolalarning estetik, ijodiy taraqqiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bog‘cha yoshdagi bolalarga musiqali asarni tasvirlab berishni taklif etilsa, bu taklif ularda jonli qiziqishni uyg‘otadi. Bu bolalarda ijodiy izlanish, mustaqillik kompozitsiyasini tuzish qobiliyatlarini o‘stiradi. Bolalarning tasviriy faoliyatlarini tasviriy san‘at asarlari bilan uyg‘unlashtirib olib borish muxim ahamiyat kasb etadi. Bolalar tasviriy san‘at namunalarini kuzatib borar ekanlar, ular rassomlarning ijodi bilan kengroq tanishib qolmay, surat chizishda mazmun, rang, shakl tanlashda muxim ko‘nikmalarni egallab oladilar, san‘at go‘zalligini, boyligini ko‘ra bilishga o‘rganadilar. SHunday qilib, maktabgacha ta‘lim tashkilotda tasviriy faoliyatni boshqa faoliyat turlari bilan qo‘shib olib borish bolalar xayotini boyitadi va tarbiyaviy ish samaradorligini yanada oshiradi. Yana bir muhim tomoni shundaki, o‘yinlarda, zal va guruh xonalarini bezashda bolalarning ishlari kerak, ya‘ni bolalarning ishlari ularning xayotida kattagina joy egallashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.**

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 bet

4. AZ Baxodirovna [FORMATION OF A SPIRITUAL WORLDVIEW OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH THE MEANS OF GENRES OF FOLK ORAL CREATIVITY](#)

INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE &
INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN 2023